



TILGA E'TIBOR-ELGA E'TIBOR.

Bekmirzayeva Nozima Guliston davlat universiteti

43-24 guruh talabasi.

Turli hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi e'tirof etiladi. 2005 yilda tuzilgan YUNESCO ro'yxati 6 912ta tilni qamrab oladi. Bu tillardan 32,8 foizi Osiyo va 30,3 foizi Afrika qit'asiga to'g'ri keladi. Tillar ham odamlarga o'xshaydi, yonma-yon yashashadi, bir-biriga ta'sir qiladi, o'zgaradi-rivojlanadi. Faqat til o'lganda, motam tutuvchi bo'lmaydi xolos. Milliy til- xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbaidir. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiylaydi, o'qitadi, urf-odat, an'ana va madaniyatlarni saqlaydi, avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi.

Til-mamlakat timsoli, qimmatbaho mulkdir. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushishi turgan gap. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi.

Til- millat ko'zgusi, deb bejiz aytishmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili- ona tilimiz ta'sirida shakllangan.

So'ngi yillarda O'zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlarimiz ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Buni tasdig'i o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro'-e'tiborini tubdan oshirish bo'yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. 1989 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Asosiy qonunimiz Konstitutsiyamizning o'zbek tilida yaratilishi esa ona tilimizning nufuzini yanada yuksaltirdi. Davlatimiz madhiyasi xalqaro maydonlarda o'zbek tilida yangray boshladi. Ayniqsa, ona tilimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak



minbarida, ulkan siyosiy sammit va uchrashuvlarda barilla yangrab, tinchlik, do'stlik va hamkorlik vositasiga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

O'zbekiston Prezidenti 2019 yil 21 oktyabrda O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonni imzoladi. Unga muvofiq, 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. 2020 yil 20 oktyabrda esa Prezidentimizning Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. 21 oktyabr-o'zbek tili bayrami kuni, deb belgilandi.

Ona tilimizning xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini hayotga to'laqonli tatbiq etish barchamizning fuqarolik burchimizdir.

Hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qilubchi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu yo'lda milliy o'zligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli bo'lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdukamol Po'latov. Til millat ko'zgusi.
2. www.tarix.uz.